

TRANSPORT EKSPEDISTSIYASI SHARTNOMASI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ASOSLARI

Abduvaliyev Murodillo Ma'rufjon o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Transport ekspeditsiyasi shartnomasi huquqiy tartibga solish asoslari tahlil qilinib, normativ-huquqiy hujjatlar hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritildi. Bundan tashqari, huquqiy bazani yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar, taqqosiy yondashuv va sud amaliyotidagi misollar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Transport xizmati, expeditsiya, expeditor, yuk, jo'natuvchi va qabul qiluvchi.

Bozor munosabatlari transportdan foydalanishni huquqiy tartibga solishga keskin ta'sir ko'rsatdi. Transport xizmati sohasida ko'plab xususiy sektor korxonalari vujudga keldi. Ayrim hollarda yukni bir joydan ikkinchi joyga eltishda bir necha davlat hududlarini bosib o'tish, bir necha transport turidan foydalanish (avtomobil, temir yo'l, havo va suv transporti) talab etishi mumkin. Bunda esa yuk egasini bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Bu qiyinchiliklar, yuklarning jo'natilishi va qabul qilib olinishini ta'minlash, eksport yoki import uchun talab qilinadigan hujjatlarni tayyorlash, yukning miqdori, sifati va holatini har bir transportga yuklaganda va tushirganda tekshirish, bojlar, yig'imlar va boshqa xarajatlarni to'lash, ayrim ko'zda tutilgan va tutilmagan xarajatlarni to'lash, turli davlatlar hududidan olib o'tilayotganligi uchun o'z-o'zidan tilni bilish yoki til biladigantarjimanga ehtiyoj sezish kabilarda namoyon bo'ladi. Bunda o'z-o'zidan yordamchi operatsiyalarning butun majmuini bajarish zarurati kelib chiqadi.

Shuningdek, u yoki bu shaxs manziliga yuborilayotgan yoki kelayotgan yuklar hajmi katta miqdorda bo'lsa, belgilangan operatsiyalarni mustaqil bajarish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi. Bunday faoliyat maxsus tayyorlangan ixtisoslashgan shaxslar ekspeditorlar tomonidan amalga oshiriladi¹.

Transport tashkilotlarining mijozlarini xizmat qilish bo'yicha bunday faoliyat ekspeditsiyali xizmat deyiladi va bu xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shartnomalari turkumiga kiradi. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bilan bog'liq munosabatlar FK, Temir yo'l transporti to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.09.2000 yilgi 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Transport ekspeditorlik korxonalari to'g'risida"gi nizom va "Transport-ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish tartibi" bilan tartibga solinmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 2024

Ekspeditor mijozlarning yuk tashish va transport-ekspeditorlik xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirish, eng maqbul transport yo'nalishlarini ishlab chiqish va tanlash, transportda tashishlar turlarini va yuklarni yetkazib berish usullarini, shuningdek, yuklarni yetkazib berishning va ularni saqlashning kelishilgan muddatlarini belgilash, transport xarajatlarini kamaytirish, kira qilish va kira haqini to'lash, yuklarni to'plash, saqlash, ishlov berish, o'rash-joylash va taqsimlash, tovarlarga ilova qilinadigan hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, -yordamchi va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan, yukni deklarastiyalash, bojxona xizmatlari ko'rsatish, yuk hujjatlarini rasmiylashtirish, yuklarni sug'urtalash kabi vazifalarni bajarish jarayonida amaldagi qonunchilikka asosan bir qator talablarga javob berishi talab etiladi².

Ekspeditor sifatida faqat transport ekspedistiyasi xizmatlarini ko'rsatish uchun listenziya olgan tijoratchi yuridik shaxslar va fuqarolar bo'lishi mumkin. Transport vositalari, terminallar va transport-ekspeditorlik faoliyatining boshqa ob'ektlari, shuningdek, transport-ekspeditorlik xizmatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy ravishda sertifikastiyalanishkerak. Transport-ekspeditorlik faoliyati sohasidagi sertifikastiyalash vakolatli davlat organi yoki u vakil qilgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Shartnoma predmetini ekspeditor tomonidan ko'rsatiladigan yuklarni tashish bilan bog'liq xizmatlar tashkil qiladi. Shartnomaning muddati taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi. Shartnomaning bahosi ko'rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan ishlarning ko'lamiga qarab, ekspeditorga to'lanadigan haqdir. Amaldagi tariflarga ko'ra, haq to'lash taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat, 2024.
2. Fuqarolik huquq II. Darslik. Toshkent- 2023. 800-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2. / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktريا press, 2013, - 768 b
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.09.2000 yilgi 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Transport ekspeditorlik korxonalari to'g'risida"

² 2. Fuqarolik huquq II. Darslik. Toshkent- 2023. 800-b.